XALQ DEPUTATLARI UCHTEPA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr III-22-130-14-202-K/25 Uchtepa tumani

Uchtepa tumanining 2026-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27- va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 02-3653-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Uchtepa tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **188 016 935 ming so‘m** va xarajatlari **188 016 935 ming so‘m** miqdorida qabul qilinganligi hamda Uchtepa tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 697 959 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman byudjetiga umumdavlat soliqlardan ajratma me’yorlari 2-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda

hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 634 120 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori 8-bandiga muvofiq:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar;

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy byudjeti hamda tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

foyda solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

davlat bojlari;

yig‘imlar;

jarimalar.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari**(A.Azimov)**, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**(A.Rustamov)**, tuman soliq inspeksiyasi**(G‘.Dosmuxamedov)** bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Uchtepa tuman hokimligi matbuot xizmatiga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.uchtepatumani.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

9. Xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Uchtepa tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-5-025-14-202-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar sud tartibida hal qilinadi.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari doimiy komissiyasi **(J.Karimov)** hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **(A.Azimov)** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MAMADJANOV BUNYOD BAXTIYOROVICH**

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-22-130-14-202-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Uchtepa tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
Jami		**188 016 935**
1.	Foyda solig‘i	575 475
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	4 389 600
3.	Daromad solig‘i	1 238 265
4.	Mol-mulk ijarasidan tushum (deklaratsiya)	1 778 300
5.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	999 455
6.	Aksiz (benzin, dizel)	0
7.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	52 746 000
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	53 999 000
9.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	36 266 000
10.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 239 000
11.	Suv solig‘i	6 221 000
12.	Davlat boji	2 777 800
13.	Jarimalar	3 192 200
14.	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	288 840
15.	Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar	0
16.	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	1 306 000
17.	Boshqa tushumlar	0

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-22-130-14-202-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Uchtepa tumani byudjetiga umumdavlat soliqlardan ajratmalar me’yorlari

foiz hisobida

T/R	Soliq turlari	Uchtepa tumani	
		Tuman byudjetiga	
		MRI	DSB
1	Foyda solig‘i	0%	5%
2	Aylanmadan soliq	-	5%
3	Daromad solig‘i	0%	5%
4	Mol-mulk ijarasidan tushum (deklaratsiya)	-	5%
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	-	5%
6	Aksiz (benzin, dizel)	0%	0%
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	-	100%
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	-	100%
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	-	100%
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	-	100%
11	Suv solig‘i	100%	100%
12	Davlat boji	-	5%
13	Jarimalar	-	5%
14	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	-	4%
15	Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar	100%	100%
16	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	-	100%

17	Boshqa tushumlar	-	100%

Xalq deputatlari Uchtepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
III-22-130-14-202-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Uchtepa tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Uchtepa tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**188 016 935**
1	**Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi**	***87 761 219***
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 977 600
	Maktabgachi ta’lim tashkilotlari	*52 169 317*
	Umumtalim maktablari	*24 222 273*
	Kelajak markazlari	*1 524 091*
	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*7 867 938*
2	**Madaniyat**	***10 122 560***
	shundan:	
	Madaniyat bo‘limi	*138 950*
	Musiqa maktablari	*6 815 518*
	Madaniyat markazlari	*1 402 369*
	Axborot-kutubxona markazlari	*920 377*
	Xalq ijodiy badiiy jamoalari	*845 346*
3	**Sport bo‘limi**	***9 971 508***
4	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	***1 668 272***
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	***0***
6	**Irrigatsiya bo‘limi**	***0***
7	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	***2 344 166***
8	**Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari**	***392 850***
9	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	***4 194 699***
10	**Hokimiyat**	***43 754 785***
	shundan:	*0*
	Hokimiyat	*8 489 502*
	Hokim yordamchilari	*7 383 021*
	Chernobil	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*3 208 142*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 750 000*
	«Mahalla byudjeti» jamg‘armasi mablag‘lari	*3 290 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 634 120*
11	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	***95 102***
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*95 102*
12	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**27 711 774**
13	**Boshqa tashkilotlar**	**0**